



UDK: 811

Dildora G'AYBULAYEVA,
O'zDJTU o'qituvchisi, PhD
E-mail: d.gaybullayeva@uzswlu.uz

Urganch innovatsion universiteti dotsenti v.b F.Rajabboyeva taqrizi asosida

“OXFORD DICTIONARY OF IDIOMS” LUG'ATIDAGI ANTROPONIM KOMPONENTLI FRAZEOLIZMLARNING SEMANTIK VA LEKSIKOGRAFIK TADQIQI

Annotation

Mazkur maqola ingliz tilidagi “Oxford Dictionary of Idioms” lug'atida berilgan antroponim komponentli frazeologizmlarning o'ziga xos semantik xususiyatlari hamda leksikografik tavsifiga bag'ishlangan. Maqolada antropokomponentli frazeologizmlarning semantik-leksikografik jihatlarini ochib berishda tavsiflash, tasniflash, komponent va statistik tahlil metodlaridan unumli foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, onomastika, frazeologizm, antroponim, frazeonomastika, semantik xususiyat, lingvostatistik tavsif.

SEMANTIC AND LEXICOGRAPHIC STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH ANTHROPNOMY COMPONENTS IN THE “OXFORD DICTIONARY OF IDIOMS”

Annotation

This article is dedicated to the semantic peculiarities and lexicographic description of phraseological units with anthroponym components presented in the “Oxford Dictionary of Idioms”. In revealing the semantic and lexicographic aspects of phraseological units with anthroponym components, descriptive, classificatory, componential and statistical analysis methods have been effectively used.

Key words: Phraseology, onomastics, phraseological units, anthroponym, phraseonomastics, semantic features, linguostatistical description.

СЕМАНТИЧЕСКОЕ И ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С АНТРОПОНИМИЧЕСКИМИ КОМПОНЕНТАМИ В «OXFORD DICTIONARY OF IDIOMS»

Аннотация

Данная статья посвящена семантическим особенностям и лексикографическому описанию фразеологических единиц с антропонимическими компонентами, представленных в Oxford Dictionary of Idioms. В процессе раскрытия семантических и лексикографических аспектов фразеологических единиц с антропонимическими компонентами эффективно использованы методы описательного, классификационного, компонентного и статистического анализа.

Ключевые слова: Фразеология, ономастика, фразеологические единицы, антропоним, фразеонимастика, семантические особенности, лингвостатистическое описание.

Kirish. Hozirgi kungacha dunyo tilshunosligida allaqachon mustaqil fan sifatida shakllanib, rivojlanib borayotgan frazeologiya sohasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. “Ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda frazeologiyaga XX asr boshlarida shveysariyalik olim Sh.Balli tomonidan asos solingani, keyinchalik fan sifatida V.Vinogradov tomonidan shakllantirilgani ta'kidlansa-da, ayrim tadqiqotchilar frazeologiyaga oid tadqiqotlar Samarqandda frazeologiyani alohida fan hisoblanishini isbotlab bergan mashhur olim Ye.Polivanov tomonidan boshlab berilganini aytadilar. Bunday nuqtai nazarlar hozirgacha olimlar tomonidan goh qo'llab-quvvatlanib, goh boshqacha faktlar asosida farqli talqin qilib kelinmoqda” [9].

Garchi olimlar tomonidan frazeologiyani o'rganish sohasi frazeologizmlar sifatida e'tirof etilsa-da, mazkur terminning haligacha mufassal ta'rif mavjud emas. Bu esa frazeologiyani tushinishda keng va tor yondashuvlarni ilgari suruvchi frazeologik makrokonsepsiya uchun asos bo'lib kelmoqda. Biz mazkur tadqiqotda paremiologik birliklarni frazeologizmlar tarkibiga kirituvchi tadqiqotchilardan farqli o'laroq, frazeologizm terminini tushinishda tor talqinning konseptual ustunligiga asoslanamiz.

Frazeologiya bir qator sohalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular orasida atoqli otlar bilan shug'ullanuvchi onomastika (nomshunoslik) sohasi ham mavjud. “Shu kungacha muayyan bir til va turli tizimli tillar doirasida onomastika hamda frazeologiya fanlarini uyg'unlashtirgan holda xorij hamda turkiy tilshunoslikda qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biz ushbu uyg'unlashuv samarasi o'laroq vujudga kelgan yo'nalishni “frazeonomastika” deb nomlashni joiz deb bildik” [1]. Frazeonomastika frazeologiyani yangi yo'nalishi bo'lib, unda atoqli otlar bilan yasalgan frazeologizmlarning o'ziga xos kategorial xususiyatlari o'rganiladi. Mazkur tadqiqot obyekti hisoblangan antroponim komponentli frazeologizm (AKF) lar ham aynan atoqli ot komponentli frazeologizmlar guruhiga kirib, “frazeologik birliklar tarkibida qo'llaniladigan kishining atoqli nomi kishi xarakterining in'ikosi, uning fe'li, xulq-atvori, yurish-turishidagi o'ziga xoslikning aksidir” [4].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda AKFlar frazeonomastikaning makroko'lami sifatida keng o'rganilmoqda. Qator olimlar o'z tadqiqotlarida AKFlarni rakursaro tahlilga tortib, bunday til birliklarining umumiy frazeologizmlardan ajratib turuvchi unikal jihatlarini ochib berishga harakat qilmoqda. Xususan, rus, tatar va ingliz

tillaridagi AKFlarning etimologik jihatdan kelib chiqishi G.Z.Darzamanova tomonidan keng o'rganilgan [5]. Muallif o'z ishida AKFlarni har bir tilning boy tarixi, turmush tarzi, urf-odati va an'analari haqida xabar beruvchi birliklar sifatida xarakterlaydi. Olima nafaqat frazeologik, balki paremiologik birliklar tarkibidagi kishi nomlarini mazkur birliklarning ekvivalentsiz komponenti sifatida tavsiflaydi.

Z.R.Zagirova esa ingliz tilidagi AKFlarning etimologik va semantik-funksional parametrlarini fransuz, rus va tatar tillari misolida qiyosiy-chog'ishtirma planda tahlilga tortgan. Tilshunosning tahlil materiallarida keltirilgan AKFlarning kelib chiqish manbalari, ularning qachon va qaysi omil orqali paydo bo'lganligi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan [6].

N.V.Dorodneva, Y.N.Yermakovaning "Atoqli ot komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari" [6] nomi ostida chop etilgan maqolasi esa AKFlar birgalikda toponim komponentli frazeologizmlarning madaniy fondagi ahamiyati, mazkur til birliklarining milliy-madaniy jihatlariga bag'ishlangan.

M.A.Radjabovanning ishida esa ingliz, o'zbek va rus tillaridagi onomastik komponentli frazeologizmlar, jumladan AKFlarning komponent tarkibiga ko'ra tasnifi hamda ularni tarjima qilish muammolari yoritilgan [8].

Z.N.Abdusamadovning tadqiqotida ingliz va o'zbek tillaridagi AKFlarning semantik-struktur tasnifi va milliy-madaniy xususiyatlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, tilshunos "frazeologizmlar tarkibidagi antroponimda muhrlangan kishining tavsifini frazeologizm tarkibidagi milliy-madaniy tipaj sifatida baholaydi" [4].

Shuni ta'kidlash joizki, bugungi qadar dunyo olimlari tomonidan o'rganilib kelinayotgan ingliz tilidagi AKFlar, asosan, etimologik va milliy-madaniy jihatdan ko'proq o'rganilmoqda. Biroq frazeonomastika sohasida ingliz tilida mavjud bo'lgan muayyan frazeografik manba asosida bunday til birliklarining semantik va leksikografik tahliliga bag'ishlangan ishlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolaning nazariy qismini yoritishda qator lingvistik manbalar va adabiyotlar asos qilib olindi va obyektivlik, ilmiylik, zamonaviylik tamoyillariga rioya qilindi. Tadqiqotning amaliy qismini bayon etishda J.Seifring tomonidan qayta to'ldirilgan "Oxford Dictionary of Idioms" (ODI) lug'atining 2-nashri tanlab olindi. Tadqiqot usullari sifatida tavsiflash, tasniflash, komponent va lingvostatistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tahlillarimiz davomida ODI lug'atida berilgan AKFlarni 5 ta yirik frazeosemantik guruhga ajratish orqali ular tarkibidagi kishi nomlari haqida yanada aniqroq tasavvurga ega bo'lish imkonini tug'ildi:

Ism qatnashgan AKFlar

Bunday AKFlar tarkibidagi onim komponent shaxs ismini anglatadi. Bunday qat'iy qarorni berishda bu guruhga kiruvchi AKFlarning etimologik kelib chiqishiga oid ma'lumotlarga asoslanildi. Masalan: lug'atda keltirilgan A Roland for an Oliver frazeologizmi tarkibida 2 ta (Oliver va Roland) onim komponent sifatida ishtirok etgan va mazkur AKFni o'zbek tiliga "salomga yarasha alik" ma'nosida tarjima qilish mumkin. ODI lug'atida berilishicha, "bu ibora Karl Buyukning afsonaviy jiyani Roland va yana bir ritsari — Oliver o'rtasidagi kuchlar teng bo'lgan yakkama-yakka jangdan keyin xalq orasida ommalashgan. Ushbu jangda Roland ham Oliver ham g'alaba qozonmagan, ammo ular o'rtasida jangdan keyin mustahkam do'stlik vujudga kelgan. Fransuzlarning "Roland qo'shig'i" nomli o'rta asr epik asariga ko'ra, Roland Karl Buyuk armiyasining orqa qo'shiniga boshchilik qilgan. 778-yilda uning armiyasi Pirene tog'laridagi Ronseval (hozirgi Roncevaux) hududida hujumga uchragan. Oliver Rolandga yordam chaqirish uchun karnay chalishni taklif qilgan, lekin

Roland buni kechikib bajargan. Natijada, Roland va qo'shinning qolgan qismi halok bo'lgan" [2].

Ta'kidlash joizki, lug'atda Jack antroponimi 5 ta frazeologizmning komponenti sifatida qatnashgan: Home, James; Every man Jack; I'm all right, Jack; Jack all of trades; On your Jack.

Mazkur AKFlarning onim komponenti ingliz xalqida eng ko'p qo'llaniladigan ismlardan biri bo'lib, frazeologizmlar tarkibida ular oddiy xalq hayoti bilan bog'liq bo'lgan voqea-hodisalarga ishora qiladi. Xususan, on your Jack AKF "yolg'iz, mustaqil ravishda" ma'nolarini anglatib, asosan, norasmiy uslubda qo'llaniladi va nutqni yanada ta'sirli, obrazli yetkazib berishga xizmat qiladi.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, ODI lug'atida jami 26 ta AKFning onim komponenti aynan kishining ismi bilan bog'liq bo'lib, ular o'z etimologik xususiyatiga ko'ra ingliz xalqining o'ziga xos hayoti, adabiy manbalari, tarixiy voqealari haqida nafaqat lingvistik, balki etnografik jihatdan ham qimmatli ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi. Familiya qatnashgan AKFlar

ODI lug'atida aniqlangan 14 ta AKF tarkibidagi ismlar ingliz familiyalari bilan bog'liq. Masalan: o'zbek tilida "omadi chopmoq" ma'nosini ifodalovchi Be in like Flynn AKFi tarkibidagi onim komponent avstraliyalik mashhur aktyor Errol Flynnning familiyasi bilan bog'liq. Lug'atda keltirilishicha, "Errol Flynn kutilmaganda muvafaqqiyat qozonadi va bu uning hayotini tubdan o'zgarib yuboradi. Osonlikcha kelgan katta yutuq va davomiy muvafaqqiyatlar sabab, unga o'xshab omadli bo'lishni istovchilar o'z nutqlarida uning familiyasini qo'shib gapira boshlaganlar. Keyinchalik bu so'z birikmasi ko'chma ma'noda, kinoya ottenkasida qo'llanila boshlagan" [2]. Be in like Flynn antropokomponentli frazeologizmning bugungi kunda qo'llanilishi, asosan, so'zlashuv uslubida bo'lib, salbiy baho ottenkasiga egaligi bilan boshqa shu ma'noda frazeologizmlardan farq qiladi.

Tahlil qilinayotgan lug'atda kishilarning familiyasi ishtirok etgan Buggin's turn; Go for a Burton; Hobson's choice; Even Stevens; Morton's fork; Make a Horlicks of; According to Hoyle Murphy's law; Potemkin village; The life of Riley; Put on the Ritz; Queensberry rules kabi AKFlar bugungi kunda faol frazeologizmlar sanaladi.

Ism+familiya qatnashgan AKFlar.

Ingliz tilidagi atoqli otlar bilan yasalgan frazeologizmlarning asosiy qismini tashkil etuvchi AKFlar tarkibida nafaqat ismlar va familiyalar, balki bunday onimlarning birgalikda kelishi ham kuzatiladi. Tahlillarimiz natijasida ODI lug'atidan tarkibida ism va familiya ishtirok etgan 10 ta AKFni aniqlandi: All my eye and Betty Martin; As game as Ned Kelly; Before you can say Jack Robinson; Mickey Finn; The real Simon Pure; A roll Jack Rice couldn't jump; Sweet Fanny Adams; Tom Tiddler's name; Uncle Tom Cobley and all; Davy Jones locker.

Mazkur guruhga kiruvchi AKFlarning o'ziga xos xususiyati struktur jihatdan ikki onimning bir frazeologizm tarkibida kelishi bo'lsa, semantik jihatdan ulardagi ma'no yaxlitligi, metaforik ko'chim orqali ifodalanishi mumkin. Before you can say Jack Robinson AKF o'zbek tiliga "juda tez yoki to'satdan" deb tarjima qilinib, mazkur frazeologizm 18-asrdan kelib chiqqan. Ushbu frazeologizmning etimologiyasi haqida bir necha qarashlar mavjud bo'lib, ular orasida haqiqatga yaqin deb e'tirof etiladigan varianti Jek Robinson ismli afsonaviy shaxs haqidagi xalq orasida ingliz rivoyatiga borib taqaladi. Rivoyatga ko'ra, qadimda Jek Robinson ismli kishi bo'lib, u xalq orasida juda kamnamo bo'lgan. Odamlar uning tashrifi haqida bir-biriga xabar yetkazgunga qadar, u g'oyib bo'lib qolavergan. Bunday shaxsning borligini uni uchratgan kishilar isbot qilishga uringanlar, biroq Jek

Robinsonning qisqa tashrifi sabab, uning haqiqatdan mavjud ekanligini asoslay olmaganlar. Shundan so'ng xalq orasida tez fursatlarda sodir bo'ladigan ish-harakatlarga nisbatan Before you can say Jack Robinson AKFi qo'llanila boshlagan. "Bugungi kunda ushbu frazeologizm norasmiy so'zlashuv uslubida keng qo'llaniladi" [2].

Laqab qatnashgan AKFlar


Mr Clean; The Grim Reaper; Lady Muck; The real McCoy; Scout's honor; On Shank's pony; Take the Mickey kabi frazeologizmlar ODI lug'atiga kiritilgan laqab qatnashgan AKF guruhiga mansub bo'lib, ularni nutq jarayonida qo'llash tinglovchi ongida oddiy so'zlar bilan ifodalab bo'lmaydigan hissiyot yoki tasavvurni kuchliroq beradi. "Ingliz tilida beshafqat o'lim timsoli sifatida qo'llaniladigan Grim Death / the Grim Reaper AKFidan matnni, nutqni yanada ta'sirchan ifodalash maqsadida, asosan, kitobiy uslubda foydalaniladi. Etimologik kelib chiqishi turli mifologiyalarga borib taqaladigan mazkur frazeologizm tashxis usulida yasalgan

bo'lib, G'arb adabiyotida dastlab Flip Massinjer va Jon Milton asarlarida paydo bo'lgan" [2].

Taxallus qatnashgan AKFlar

Tahlilga tortilgan antropokomponentli frazeologizmlar orasida onim-taxallus komponenti bo'lgan birgina frazeologizm aniqlandi: Do a Melba. Bu frazeologizm semantikasi ingliz tilida kimdir sahnadan (yoki biror ijtimoiy maydondan) chiqib ketib, keyin bir necha marta "qaytib kelishini" bildiradi. Ayniqsa, mashhur shaxslar, san'atkorlar "xayrlashuv konserti" qilgandan keyin yana chiqishsa, bu AKF ishlatiladi. Frazeologizmning etimologiyasi avstraliyalik mashhur opera qo'shiqchisi Nellie Melba (1861–1931) nomi bilan bog'liq. "Nellie Melba asl ismi Helen Porter Mitchell bo'lgan qo'shiqchining laqabi bo'lib, u o'zining "xayrlashuv konsertlarini" bir necha bor e'lon qilgan, ammo har safar "bu oxirgisi" deb chiqish qilganidan keyin yana qaytib kelgan. 1920-yillarda u hatto o'nlab marta "oxirgi chiqish" qilgan. Shu sababli jurnalistlar va jamoatchilik "Melba yana qaytdi!" deb kinoyali tarzda gapira boshlashgan" [10].

Shunday qilib, AKFlarning ODI lug'atidagi statistik holatini umumiy ko'rinishda quyidagicha tasvirlash mumkin:



1-rasm. ODI lug'atida AKFlarning guruhlar bo'yicha statistik natijalari

Chizmada aks ettirilgan foiz ko'rsatkichlarini aniqlashda matematik proporsiya ($p = m/n \times 100$) usulidan foydalanildi. Bunda:

p – aniqlanishi zarur bo'lgan foiz (protsent);

n – lug'atda berilgan umumiy AKFlar miqdori;

m – umumiy AKFlar orasidan aniqlangan ma'lum ichki guruhlar miqdori;

Formulaning ishlash mexanizmiga ko'ra, p qiymatni aniqlash uchun n miqdordagi frazeologizmlar umumiy foiz deb hisoblanuvchi 100 ga ko'paytiriladi hamda chiqqan natija frazeologizmlarning jami miqdori bo'lgan m ga bo'linadi.

ODI tarkibidagi jami 58 ta AKFlar 100% miqdorda qabul qilinib, har bir aniqlangan ichki guruh soni (masalan, ism qatnashgan AKFlar – 26 ta) ning foiz ko'rsatkichi hisoblandi. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, AKFlar lug'atdagi jami frazeologizmlar (5200) ning 1.1% ini tashkil etishi aniqlandi.

Xulosa. Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, har bir til leksik qatlamining frazeologizmlari kam so'zlar bilan ko'p ma'noni ifoda etishning eng qulay vositalari bo'lib, ular inson

badiiy tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Ingliz tilining boy frazeologik fondi orasida atqqli ot komponentli frazeologik birliklar, xususan, antropokomponentli frazeologizmlar nutq ta'sirini kuchaytiruvchi va insonlar tomonidan o'zlashtirilib, ularning ongiga chuqur singib ketgan so'zlar sifatida xalqning urf-odati, an'analari, madaniyati va tarixini o'zida yaqqol aks ettirib, adabiy tilning keng ifoda imkoniyatlarini o'zida namoyon qiluvchi leksik vositalar sifatida inson hayotining turli jabhalarini qamrab olgan.

ODI lug'atining onomastik nuqtayi nazardan o'rganilishi natijasida unda aniqlangan AKFlarning o'ziga xos semantik va leksikografik xususiyatlarini ochib berildi. Bu esa kelgusi ishlarda rivojlanib borayotgan frazeonomastika sohasining taraqqiyotiga hissa qo'shishi mumkin. Ta'kidlash joizki, frazeologizmlarning leksikografik manbalar asosida o'rganilishi nafaqat mazkur soha, balki tilshunoslikda fan sifatida ajralib borayotgan yangi - lingvostatistika sohasi uchun ham muhim yangilik sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. G'aybullayeva D.F. Ingliz va o'zbek tillaridagi atqqli ot komponentli frazeologizmlarning semantik-stilistik va lingvostatistik xususiyatlari: Filol. fan. falsafa d-ri (PhD) ... diss. – Toshkent, 2025. – 157 b.
2. Siefing J. Oxford Dictionary of Idioms. – Oxford University press: Second edition. 2004. – 352 p.
3. Абдусаматов З.Н. Инглиз ва ўзбек тилларида антропонимик компонентли фразеологик бирликларнинг миллий-маданий хусусиятлари: филол.фанл. бўйича фалс. докт. ...дисс. – Тошкент, 2022. – 132 б.
4. Абдусаматов З.Н. Инглиз ва ўзбек тилларида антропонимик компонентли фразеологик бирликларнинг миллий-маданий хусусиятлари: филол.фанл. бўйича фалс. докт. ...дисс. – Тошкент, 2022. – 132 б.
5. Дарзаманова Г.З. Фразеологические единицы и поговорки с антропонимами в русском, татарском и английском языках: Автореф. дис...канд. филол. наук – Казан, 2002. – 24 с

6. Дороднева Н.В., Ермакова Е.Н. Лингвокультурологические свойства фразеологизмов с компонентом-именем собственным (на материале русского и английского языков) // Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета. – 2013. – № 1. С. 236-246.
7. Загирова З.Р. Лексико-семантические и функциональные параметры антропонима в составе фразеологической единицы в английском языке (в сопоставлении с французским, русским и татарским): Автореф. дис...канд. филол. наук. –УФА, 2002. – 24 с.
8. Раджабова М.А. Ономастик компонентли фразеологик бирликларнинг лингвомаданий жиҳати ва таржима муаммолари (инглиз, ўзбек ва рус тиллари материалида): Филол. фан. фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Бухоро, 2020. – 160 б.
9. Ҳамидов Х.Х. Турк фразеологияси масалалари. Монография. Тошкент: “Баёз”, 2019. – 160 б.
10. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/do-a-melba>